



SINESTEZIK METAFORALARDA MILLIY MENTALLIKNING AKS ETISHI

Oripova Mavluda Baxriddinovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
mavludaxonoripova85@gmail.com

Annotatsiya: *Metafora nafaqat ong, balki til va madaniyat universalisasi hamdir. Biz tadqiq qilayotgan sinestezik metaforalar esa bu borada o'zining alohida xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Mazkur maqolada sinestezik metaforalarda milliy mentallikning aks etishi o'ziga xostarzda ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *sinestezik metafora, lingvokulturalogiya, kognitiv birlik, lisoniy ong, milliy o'zlik.*

Annotation: *A metaphor is not only a stylistic devise but also a linguistic and cultural universal. The synesthetic metaphors we are studying, in particular, stand out due to their distinct characteristics in this regard. This article reveals the national and cultural uniqueness of synesthetic metaphors.*

Keywords: *synesthetic metaphor, linguoculturology, cognitive unit, linguistic consciousness, national identity.*

Til va madaniyatga doir muammolar etnolingvistika, etnopsixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokonseptshunoslik, lingvopersonologiya kabi sohalar ham o'rganilganligi bois mazkur sohalar lingvokulturologiyaga yondosh sohalar sifatida tadqiq qilinadi.

Metaforani kognitatsiyaga dahl qiluvchi hodisa sifatida intellektning muayyan qobiliyat darajasi deb baholash mumkin. U ayni vaqtda interpretatsiyaning tegishli kodini ifoda etadi. Strukturalangan ushbu madaniy kod til hamjamiyati a'zolari uchun tushunarli, tez anglanuvchi bo'lishi lozim. Chunonchi, madaniy kod – bu madaniy matnlarni o'qishda zarur bo'luvchi asosiy tushunchalar, me'yorlar, ko'rsatmalar, qarashlar yigindisidir [Сви́репо, 2002:10].

Tilda mavjud frazeologizm va metaforalar, ularga birikkan madaniy konnotatsiyalar bilim, ya'ni kognitiv o'zlashtirishni tashkil etganidan, frazeologizmlar va obrazli-mativlashgan so'zlar, ya'ni metaforalar madaniy belgilarning namoyishchisi hisoblanadi.

Metaforalarning madaniy o'ziga xosligi quyidagicha namoyon bo'ladi:



Insonning fikrlashi, kuzatuvi, his etib idrok etishi – barcha-barchasi metaforik xususiyatli bo‘lib, bunda metafora nutqni tejash tamoyiliga amal qiladi va tilda avvaldan mavjud bo‘lgan so‘zlarning yangi ma‘nolarini vijudga keltiradi;

Metaforaning (ayniqsa, sinestezik metaforaning) amal qilishi hayratomuzdir: atrofdagi narsa, voqea- hodisa yoki shaxslarning muayyan tavsif yoki sifatlarini aniq sezgilar orqali ifodalamay, butunlay boshqa kategoriyal guruhlariga tegishli bo‘lgan sezgilar orqali idroklangan holda gapirishiga qaramasdan, tinglovchi ularning muddaolarini xatosiz anglaydi (bu til sohibining avvaldan ma‘lum bo‘lgan madaniy bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi);

Metafora munosabat bildirishning alohida nuqtayi nazari bo‘lib, uning mehanizmi inson madaniyati, milliy ong va saviyasi va shu kabi boshqa omillarga teng ravishda axloqiy baholash shkalasiga o‘zaro proparsional tarzda ishlaydi. Shunga ko‘ra metaforalar kognitiv-pragmatik jihatdan madaniy axborotni tashivchilardir.

Lisoniy konseptlarni ularning milliy va madaniy o‘ziga xoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish metaforalarning konseptual tahlilida qo‘l keladi. Bizga ma‘lumki, milliy o‘ziga xoslik quyidagi holatlarda kuzatiladi:

- Leksik sathda: ikki qiyoslanayotgan tillarning birida metaforik ma‘no mavjud bo‘lib, ikkinchi tilda bu holat kuzatilmasa: *og‘ir fe‘l, yengil qiz*
- Sememalar sathida: ikki qiyoslanayotgan tillarning leksemalari metaforalashsa-yu, hosil bo‘lgan sememalarda yoki metoforizatsiya yo‘nalishida farq kuzatilsa yoki qiyos etilayotgan metaforik sememalar semalarning tarkibiga ko‘ra farqlansa: *yashil sevgi* – o‘zbek tilida (bolalikdagi beg‘ubor sevgi), inglizlarda (yakun topgan sevgi)

Til va madaniyat mushtarakligi tilning boshqa birliklaridan farqli metaforalarda o‘ziga xos tarzda ko‘zga tashlanadi. Metaforik tizimda *sinestezik metaforalarning* bu xususiyati tilda inson omilining ruhiy-emotsional olami bilan belgilanadi. Inson madaniyat subyekti sifatida uning vujudga kelishi va tilda aks etishini tashkil etadi. Sinestezik metaforalarda til va madaniyat mushtarakligi ifodalanishi boshqa metaforalardan o‘ziga xos tarzda ajralib turadi. Inson ruhiy olamida kechayotgan anglab bo‘lmas tuyg‘ularni farqli sezgilarda idrok etish va uni tilda akslantirish ba‘zan g‘ayriodatiy ifodalanadi.

Insoniy madaniyatning *sinestezik metaforalarda* aks etishi turli-tuman ko‘rinishlarda, shakllarda voqelanadi. Insonning kayfiyati, maqsadi, jismoniy va ruhiy holati, intilishlari, orzu-umidlari kabi ichki, tabiiy – jo‘g‘rofiy, ijtimoiy-iqtisodiy, diniy va mifologik muhit esa tashqi mushtarak omillar sifatida uning ongida metaforik



baholarning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Bizga ma'lumki, ranglar – turli xalqlar mintaliteti, an'anaviy dunyoqarashi, diniy e'tiqodlari va estetik qarashlari bilan bog'liq holda turlicha ma'no va ramziylikka ega, shuningdek, ranglar bilan bog'liq bo'lgan sinestezik metaforalar ham o'zida ma'lum bir millatga xos bo'lgan madaniy yuklamani tashiydi. Masalan,

Targ'illanib bormoqda osmon,

Oppoq hidga to'lmoqda bag'rim.

Aytingiz-chi, bormi sog'-omon

Shahlo ko'zli mening targ'ilim.

Og'ushimda zangori sezgi,

Kiprigimda suyuq hayajon.

Ko'zlarimda yumaloq sevgi,

Salomatman men ham, onajon! (R.Parfi)

Yuqorida keltirilgan misralarida ***oppoq hid, zangori sezgi, suyuq hayajon, yumaloq sevgi*** kabi sinestezik metaforalar qo'llangan. Ushbu abstraktsiyalar shoir ruhiy olamining evrilishlari talqinidir. Oppoq, zangori, suyuq, yumaloq so'zlarining mavhumlashmasining emotsionalligi ham har bir kitobxonda turli darajada ro'y beradi. Masalan, oppoq hid – “bag'ir to'la shirin orzular”, zangori sezgi – “sodda, beg'ubor yoshlik”, suyuq hayajon – “sog'inch to'la ko'z yosh”, yumaloq sevgi – “imkonsiz muhabbat” kabi. Bu ifodalarni yuzaga kelishida, albatta, muallifning o'ziga xosligi madaniy bilimlar bilan mushtarak tarzda talqinlangan.

Oppoq hid – bizga ma'lumki, turkiy qavmlarda oq leksemasi ramziy ma'noga ega bo'lib, tozalik, poklik, yorug'lik, ezgulik, boqiylik, sadoqat, begunoh kabi ma'nolarni ifodalashda qo'llanib, konsept sifatida chuqur falsafiy ma'noga ega bo'lgan. Tariximizda bo'lib o'tgan “Oq kiyimlir” qo'zg'aloni yetakchilarining kiyimlari ham oq rangda bo'lgan. Bu ularning oq rang –tozalik, ezgulik, muqaddaslik ramziga bo'lgan e'tiqodini bildirgan. Bundan tashqari jo'g'rafik joylashuvi nuqtayi nazaridan ham issiq o'lka bo'lganligi uchun oq rangdagi kiyimlar kiyish ko'proq urfda bo'lgan. *Oppoq hid* birikmasi ruhiy poklikni anglatib, shirin xotira va beg'ubor sevgi bilan bog'liq.

Zangori sevgi(yashil) – o'zbekcha mintalitetda yashil rang tabiat, yangilanish, uyg'onish, yasharish, bahor, barhayotlilik ramzi sifatida ulug'lanadi. Bu ifoda orqali muallif “sodda, toza, beg'ubor yoshlik”ni ifodalagan.

Milliy poetikamizga nazar tashlaydigan bo'lsak, juda ko'p o'rinlarda yoshlikka nisbatan yashil, zangori, bahor so'zlari qo'llaniladi. Masalan, Alisher Navoiy o'zining



“Xazoyin ul-maoniy” devonida ham inson umrini to‘rt davrga bo‘lib, bolalik davrini bahor, zangori fasl deb ataydi. Chunki bu ifoda inson umrining ilk, pok, yangi bosqichi sifatida inson hayotini tabiat qonunlarga qiyoslash orqali “o‘suvschan, sog‘lom, sof” tarzda anglashni namoyon qiladi. Nega aynan bunday ko‘chimlardan foydalanamiz? Boisi, jo‘grafiy joylashuvimiz bo‘lib, Alloh tomonida to‘rt fasl va uning ne‘matlariga egaligimiz. Arab badiyatida bunday tasvirlarning uchramasligi yashillikka ega bo‘lmagan sahrolar va jazirama haroratli iqlim ularning madaniy shuurida yetakchi hisoblanadi.

Yumaloq sevgi – sevgi, odatda, shakl bilan ifodalanmasa-da “yumaloq” deyish orqali u yaxlit, mehrga to‘la, qamrovli tarzda ifodalanagan. O‘zbek tilida *yumaloq* – chiroyli, to‘kis, iliq narsa belgisi bo‘lib, “yumaloq sezgi” bu yerda mehr-muhabbatning mukammalligini bildiradi. Madaniyatimizda “yumaloqlik” ijobiy shakl – to‘kislik va himoya.

Suyuq hayajon – bu yerda suyuqlik madaniyatda ko‘z yoshi, yurakning to‘lishi, ilqlik kabi hissiy tushunchalar bilan bog‘langan. O‘zbek xalq ijodida “ko‘ngil to‘lishi” – bu hisning suyuq shaklda kelishi (ko‘z yosh).

Demak, ushbu parchada sinestezik metaforalar orqali murakkab emotsional holatlar tasvirlangan: sog‘inch, sevgi, xavotir, ruhiy to‘lqinlanish. Bularning barchasi madaniy kodlar bilan to‘yingan “belgi” bildiruvchi leksemalar bilan ifodalanishi o‘quvchini yanada to‘lqinlantiradi.

Aytish mumkinki, tilimizda odam va uning ruhiy-emotsional olami bilan bog‘liq talay so‘zlarning sinestezik metafora asosidagi ma‘nolarga egaligi til va madaniyat mushtarakligining antroposentrik ko‘chimlar misolida dalillovchi hodisadir. Inson borliqni metafora ko‘zgusida ko‘rishi, uning ong, his-tuyg‘ularga tegishli universal hodisa ekanligi insonning ruhiy faoliyati, insoniyatning tafakkur madaniyati bilan chambarchas bog‘liqligi murakkab, sistemali va izchil qurilishga ega fenomen ekanligidan dalolat beradi.

Metafora ongning universal xususiyati hisoblanadi, biror tilning metaforadan holi emasligi, barcha tillarning o‘ziga xosligi metaforik hodisalarda namoyon bo‘lishi va ular orqali baholanishi ayni haqiqatdir. Metafora tilning o‘tmishi, buguni va eratsidir. Unga qarab tilning shakllanishi va taraqqiyotini belgilash mumkin. Til taraqqiyotining ma‘lum bir bosqichlarida paydo bo‘lgan fanning ilk davridan boshlab bugungi kundagi holatigacha uni metaforadan holi tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Demak, xulosa qilib aytganda, sinestezik metaforalarda umuman o‘xshamagan voqeliklar bir xil nom bilan aytiladi va xalqning dunyoni ko‘rishdagi, uni nomlashdagi ijodkorligi namoyon bo‘ladi. Xuddi shu kabi har bir xalq egalarida muayyan sezgi



natijasida hosil bo'lgan tuyg'ular boshqa bir tuyg'uga o'xshatiladi va bevosita tilda akslanad. Bu o'rinda ikki sezgining o'zaro qorishiqqligi emas, balki xalq ruhiyati va tafakkurining o'ziga xosligi haqida gap boradi, ya'ni bu jarayonlar lingvokulturologik yondashuv asosida ilmiy tahlil etilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Будагов Р.А. Филология и культура. – М.: МГУ, 1980. – 278 с.
2. Свирепе О.А. Метафора как код культуры. Автореферат дисс. кан. философских наук. – 2002.
3. Махмудов Н. Нутк маданияти ва тилнинг эстетик вазифаси // Филология масалалари. – Тошкент, 2006, №2(11). – Б. 47–51.
4. Махмудов Н. Сўз шайхининг мўжизалари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2009. – 7-сон. – С. 6.
5. Махмудов Н. Термин, образли сўз ва метафора // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 4.